

PEDAGOGIK QOBILIYAT TURLARI VA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Salimova Marjona Abduraxim qizi,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-bosqich
magistranti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.048>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish, pedagogik qobiliyatini shakllantirish va uning turlari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada pedagogik qobiliyatning mohiyati, xorijiy olimlar izlanishlari va xulosalari asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, pedagogik qobiliyat, pedagogik tact, mahoratlilik, autoritar qobiliyat, pedagogik faoliyat, kreativlik.

PEDAGOGICAL ABILITY TYPES AND METHODOLOGY OF PEDAGOGICAL SKILLS DEVELOPMENT IN FUTURE TEACHERS

Abstract: This article talks about the development of professional qualities of future teachers, the formation of pedagogical skills and its types. Also, the essence of pedagogical ability is highlighted in the article based on the researches and conclusions of foreign scientists.

Key words: ability, pedagogical ability, pedagogical tact, skilled teacher, authoritarian ability, pedagogical activity, creativity.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ ВИДЫ И МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В данной статье говорится о развитии профессиональных качеств будущего учителя, формировании педагогического мастерства и его видах. Также в статье на основе исследований и выводов зарубежных ученых освещена сущность педагогических способностей.

Ключевые слова: способности, педагогические способности, педагогический такт, квалифицированный педагог, авторитарная способность, педагогическая деятельность, творчество.

KIRISH. So'ngi yillarda yurtimizda har bir soha jadal rivojlanib bormoqda. Shu jumladan ta'lif sohasi ham shiddat bilan rivojlanib, xorijiy andozalarga asoslangan yangi ta'lif texnologiyalari kirib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida yosh pedagog kadrlarni ya'ni bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalayotgan va ta'lif berayotgan o'z kasbining mutaxassislari oldiga har tomonlama jahon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh, malakali kadrlarni tayyorlashdek muhim vazifani qo'yadi. Xususan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev "farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta'lif-tarbiya beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o'qituvchilarni tayyorlash-bu eng og'ir vazifa bo'lib, juda katta mehnat va mas'uliyatni talab etadi" -deya yosh pedagog kadrlarni tayyorlashni "eng og'ir vazifa" deb ta'kidlagan.[1]

Ta'lif-tarbiya sohasida yangi davr boshlanmoqda. Bugungi kunga kelib, o'qituvchi kasbi va shaxsi oldiga muhim vazifalar qo'yildi. Faqat ilmi bor o'qituvchiga emas, balki har tomonlama shakllangan, rivojlanishdan to'xtamaydigan-zamonaviy o'qituvchiga ehtiyoj tug'ildi. Zamonaviy pedagog shaxsiga qo'yilgan talablarga ahamiyat qaratildi. Bu esa, o'z navbatida ish unumdorligini oshiradi. Ho'sh, endi yetishib chiqayotgan yosh pedagog kadrlar qanchalik talabga javob bera oladi?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-sod Farmonida oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilar umumiyligi sonining qariyb 25 foizini «Pedagogika» mutaxassisligi bitiruvchilar tashkil etishi va bu mutaxassislik eng ommaviylardan biri bo'lishiga qaramasdan, uning jozibadorligi pastligi sababli pedagogika yo'nالishidagi oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining o'z kasbi bo'yicha mehnat qilish motivatsiyasi past darajada ekanligi ko'rsatib o'tilgan.[2]

Bugungi kun talablariga muvofiq bo'lajak o'qituvchi kasbiy sifatlari bilan bir qatorda shaxsiy

sifatlarini ham rivojlantirishi lozim. Shaxsiy sifatlar o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Pedagog faoliyati uchun is'tedod, qobiliyat, mohirlik, kreativlik, ijodkorlik, intelekt, talant kabi bir qator shaxsiy sifatlar muhim o'rinnegallaydi.

ASOSIY QISM. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy sifatlari qatoriga kiruvchi "qobiliyat" tushunchasiga alohida to'xtalib o'tamiz.

Qobiliyat-odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, bu xususiyatlarni haddan tashqari keng to'ldirish imkonini oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq faoliyatning muvafaqqiyatli bajarish imkonini aslo yo'q emas.[3.322]

Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha "o'zgarmas irsiyat" nasldan – naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan.

Qobiliyat-bilim, ko'nikma, malaka kabi tushunchalarga yaqin turadi, lekin ma'no jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Bilim-o'qib, o'rganish mahsuli, ko'nikma-o'qituvchi faoliyati davomida yuzaga keladigan tajriba va bilimlar majmuuni o'z ichiga olgan usul, malaka-pedagog ongli faoliyatni bajarish jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisidir. Qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lган xususiyati va u bilim, ko'nikma, malakani egallah dinamikasida paydo bo'ladi.

Tarixga nazar tashlasak, bir qancha olimlar qobiliyat va pedagogik qobiliyat haqida bir qator izlanishlar, ilmiy yangiliklar kashf etishgan. Birinchi bo'lib pedagogik qobiliyatlar tarbiyasi XIX asr o'rtalarida paydo bo'ldi. Pedagogning xarakteri va pedagogik qobiliyati XX asrning 70-80-yillarda chuqur o'rganildi. Jumladan, Adolf Disterveg (1790-1866) birinchi bo'lib pedagogik qobiliyat, pedagogik taktga e'tibor qaratdi. U ta'limning eng assosiy vazifasi ta'lim oluvchilarni qobiliyat va aqliy kuchlarini o'stirishdan iboratdir, deb hisoblaydi.

Rus olimasi N. V. Kuzmina pedagogik qobiliyatning pedagogik faoliyatda tutgan o'rni haqida to'xtalib, unga oid ilmiy izlanishlar olib boradi. Kuzmina izlanishlari davomida pedagogik qobiliyatni 5 turga bo'ladi. Ular quyidagilar:


- gnostik qobiliyat;
- proyektiv qobiliyat;
- konstruktiv qobiliyat;
- tashkiliy qobiliyat;
- kommunikativ qobiliyat.

Keyinchalik N. V. Kuzmina kuzatuvchanlikni pedagogik qobiliyat alomatlari qatoriga qo'shadi.

Pedagog olim I.P. Podlasiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi 8 ta turga bo'ladi:

- 1) tashkilotchilik qobiliyati;
- 2) diagnostik qobiliyati;
- 3) pertseptiv qobiliyati;
- 4) kommunikativ qobiliyati;
- 5) suggestiv qobiliyati;
- 6) tadqiqotchilikka doir qobiliyati;
- 7) ilmiy-bilishga doir qobiliyati;
- 8) gnostik qobiliyati.

Pedagogik qobiliyatni pedagogik faoliyat, ta'lim-tarbiyani rivojlantirishdagi o'rni F. N. Gonobolin tomonidan amaliy asoslanib, tahlil qilinadi. U mukammal tarzda pedagogik qobiliyatni xususiyat va xossalari haqida ma'limot beradi. F. N. Gonobolin pedagogik qobiliyatni 1-rasmdagi 9 ta turga ajratishni taklif etadi.



1-rasm. F. N. Gonobolin ajratgan pedagogik qobiliyat turlari

1-rasm. F. N. Gonobolin ajratgan pedagogik qobiliyat turlari

T. I. Gavakov pedagogik qobiliyat turlarini 5 ta guruhga bo'lishni taklif etadi. T. I. Gavakov taklif etgan pedagogik qobiliyat turlari quyidagilar:

- o'quvchilarni his eta olish qobiliyati;
- kishilar bilan samimiy aloqa o'rmatna olish, muloqotchanlik qobiliyati;
- irodaviy ta'sir o'tkazish va ishontira olish qobiliyati;
- o'z-o'zini baholash va boshqara olish qobiliyati;
- ijodiy ishga kreativ yondashish qobiliyati.

Bo'lajak o'qituvchi kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik vaqtida quyidagi qobiliyatlarni o'z-o'zida shakllantirishi lozim:

- ta'limni tashkil etishda dars jarayoniga, o'quvchilarning yoshiga mos vosita, ta'limning yangi metod va texnologiyalarini to'g'ri tanlay olish qobiliyati;
- ob'ektni ya'ni o'quvchini tushuna olish va his etish qobiliyati;
- dars jarayonini to'g'ri tashkil etish;
- o'quv materiallarini o'quvchiga to'g'ri, tushunarli va sodda shaklda yetkaza olish;
- dars jarayonida o'quvchilar bilan individual va guruh shaklida ishlay olish;
- nutq qobiliyati;
- o'z-o'zini baholash va o'z ustida ishlash qobiliyati shular jumlasiga kiradi.

Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko'rsatilgan:

- 1.O'z kasbiga muhabbat,o'quvchilarni seva olishi.
2. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
- 5.O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.[4.46]

Pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy izlanishlar natijasida pedagogik qobiliyatning 11 ta turi alohida ajratib ko'rsatildi.



2-rasm. Pedagogik qobiliyat turlari

Nutqiy qobiliyat-ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq, shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi, qobiliyatlari o'qituvchining nutqi darsda bamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi.[3.330.] Nutqiy qobiliyat o'qituvchi uchun eng muhim qobiliyat turi sanaladi. O'quvchiga ta'sir etuvchi omil nutqdir. Dars jarayonida materialni o'quvchiga mos shakilda soda, ravon shakilda tushuntirilsa dars samaradorligi oshadi. So'zlovchi (o'qituvchi) nutq so'zlayotganda mantiqiy fikrga, fikrning tugallanganligiga e'tibor qaratishi kerak. O'quvchining nutqiy qobiliyati birdaniga shakllanadigan jarayon emas, u vaqtlar o'tib madaniy, kasbiy, pedagogik talablar, malaksi oshib borgani sari rivojlanib boradi.

Tashkilotchilik qobiliyati-bu o'quvchilar, sinf jamoasini jipslashtirish, birlashtira olish qobiliyatidir. O'qituvchining o'z ishini to'g'ri tashkil etishi ham tashkilotchilik qobiliyatiga kiradi. O'z ishini to'g'ri tashkil etish bu-o'z ishini to'g'ri rajalashtira olish, nazorat qilish, dars jarayonida vaqtni taqsimlay olish jarayoni.

Obro'ga ega bo'lish qobiliyati-bu qobiliyat turi fanda "avtoritar qobiliyat" deb ham ataladi. O'qituvchi bevosita o'quvchilariga emotsiyal-irodaviy ta'sir etadi. Bu qobiliyat turida o'quvchining shaxsiy sifatlari muhim rol o'yaydi. O'qituvchi rostgo'yligi, dadilligi, chidamliligi, talabchanligi, sabrliligi, qat'iyligi, mustahkam irodasi bilan o'quvchilari orasida obro' orttiradi.

Kommunikativ qobiliyat-pedagogik nazokat bilan, muomala va muloqot o'rnata olish qobiliyati. O'quvchilar bilan pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri va samimiy munosabat o'rnata olish, bolalar bilan aralashish, o'quvchilar bilan munosabatda ziyraklik bilan, o'quvchilarning individual, psixologik xususiyatlarini inobatga olish qobiliyati kommunikativ qobiliyatadir. Kommunikativ qobiliyatda pedagogik takt muhim omil sanaladi. O'quvchida pedagogik taktning yo'qligi salbiy oqibatlarga olib keladi. O'quvchi o'qituvchi haqida ijobjiy fikr bildirish jarayonida ilk adolatlilikiga baho beradi. Shu sababli o'qituvchiadolatli bo'lishi lozim.

Didaktik qobiliyat-tushunilishi qiyin, murakkab bilimlarni o'quvchiga tushunarli, oson va sodda qilib tushuntira olish qobiliyati. O'qituvchi o'quvchiga murakkab bilimlarni, muammolarni yechimini, qiyin o'zlashtiriladigan ma'lumotlarni o'quvchiga moslab, oson shaklda tushuntirib berishi kerak. Didaktik qobiliyati rivojlangan o'quvchida kasbiy mahorat shakllangan bo'ladi va u o'quvchiga o'quv materialini aniq va ravshan, hayotiy misollar bilan izohlab, yetkazib bera oladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va o'quvchini mantiqiy, erkin fikrlashini ta'minlaydi.

Akademik qobiliyat-bu qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi o'z mutaxassisligiga oid fannigina emas balki, barcha fanlarga oid umumiy ma'lumotlarni biladi. O'z kasbiga doir yangiliklarni, fan-texnika ixtiolarini kuzatib, o'rganib, izlanishdan to'xtamaydi.

Pertseptiv qobiliyat-eng qisqa muddatda o'quvchini ichki dunyosi, ruhiy holatini idrok qilish qobiliyatidir. O'qituvchi o'quvchining holati, tashqi ko'rinishidagi mayda detallarga asoslanib ruhiy o'zgarishlarni sezsa oladi.

Psixologik tashxis qobiliyati-bu o'quvchini shaxsiy sifatlariga asoslanib, keljakda kim bo'lishini diagnoz qilish qobiliyati. Bunda o'qituvchi o'z ish faoliyatida ham qaysi ishi qanday oqibatga olib kelishini oldindan bila oladi. Ushbu qobiliyati rivojlangan o'qituvchi o'quvchilarini kelgusida o'quvchilarini qaysi kasb egasi bo'lishini ishonch bilan ayta oladi va ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltira oladi.

Diqqatni taqsimlash qobiliyati-bu bir vaqning o'zida bir necha obyektga e'tibor qaratish va nazorat qila olish qobiliyatidir. Dars jarayonida o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilar diqqatini jamlay olishi, darsga faol va darsga e'tiborsiz o'quvchilarini kuzatib, o'quvchilarini mavzuni tushunmaslik holatlarini kuzatib, bartaraf etishi va shu bilan bir qatorda o'z xatti-harakatlari mimika, yurish-turishi, nutqi, ovoz toni kabi bir qator shaxsiy va kasbiy sifatlariga e'tibor qaratishi lozim.

Konstruktiv qobiliyat-bu qobiliyat o'quv-tarbiya ishlariga qaratilgan qobiliyat. O'qituvchi o'quvchilar bilan ishlashda samarali metodlarni tanlay olishi, o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtira olishi va natijasini oldindan ayta olishi lozim.

Gnostik qobiliyat- tadqiqotga layoqatlilik bo'lib, o'z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o'rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir[3.332.].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, bo'lajak o'qituvchi barcha pedagogik qobiliyat turlarini o'zida rivojlantirishi lozim. Barcha qobiliyat turlarini bir o'qituvchi qisqa muddatda shakllantira olmasligi mumkin. Qobiliyat asta sekin yillar davomida rivojlanib boradi. Mahoratlari o'qituvchi ish faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlardan o'zida rivojlangan pedagogik qobiliyati orqali chiqib ketishi lozim. Inson qachonki kutilmagan vaziyat yoki muammoga duch kelsagina, qanday qobiliyati mavjudligini bila oladi. Biz pedagogik qobiliyati shakllangan, rivojlanishdan to'xtamaydigan o'qituvchini "mahoratlari o'qituvchi", deb atashimiz mumkin. Chunki, mahoratlari o'qituvchi rivojlanishdan, o'sishdan to'xtamaydi va tajriba, malakasi oshgani sari sayqallanib boradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh. 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylari kuni tabrigi nutqi. 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-sod Farmoni.
3. B. X. Xodjayev. "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Darslik. "Sano-standart", Toshkent. 2017. –B. 322-333.
- 4.N.S.Xujayarova. "Umumiy Pedagogika // Pedagogik mahorat". O'quv qo'llanma. "Fan va ta'lif", Qarshi. 2023. –B. 38-50.
- 5.A.R.Soxibov. «Пути совершенствования механизмов применения интерактивных методов в педагогическом образовании» "Педагогик маҳорат" журнали 3-сон Бухоро 2021 й. 27-30 betlar.
- 6.A.R.Soxibov. "Modern methodological bases of higher education management in the era of digitisation" Таълим ва инновацион тадқиқотлар. Халқaro илмий-методик журнал. 2022 йил №10 169-176 betlar.
7. A.R.Soxibov. "Talimning interfaol usullari." O'quv-uslubiy qo'llanma. Qarshi 2020y.175 bet.